

Ochilova Gulnoza Asrorovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Pedagogika"
kafedrası o'qituvchisi

JADID MA'RIFATPARVARLARINING GENDER MADANIYATGA DOIR QARASHLARI MAZMUNI

UO'K: 371

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_2_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_2_8)

OCHILOVA G.A. JADID MA'RIFATPARVARLARINING GENDER MADANIYATGA DOIR QARASHLARI MAZMUNI

Maqolada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan pedagogik jarayon, davr xotin-qizlarining hayot tarzi, jadid ma'rifatparvarlari faoliyati va bu faoliyat natijasida o'lka xotin-qizlari hayotidagi tub o'zgarishlar, jamiyatda ularning o'rnini belgilab beruvchi gender tenglikni shakllantirish jarayoni qay holatda amalga oshirilganligi haqida so'z boradi.

Tayanch so'z va tushunchalar: Jadid, jadidchilik, jadid ma'rifatparvarlari, jamiyat, davr, xotin-qizlar, gender, gender madaniyat, feminizm, ta'lim, xalq ta'limi, maktab.

ОЧИЛОВА Г.А. СОДЕРЖАНИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ К ГЕНДЕРНОЙ КУЛЬТУРЕ

В статье описывается педагогический процесс, происходивший в Туркестане в конце XIX - начале XX века, образ жизни женщин того времени, деятельность интеллигенции джадизма и коренные изменения в жизни женщин страны в результате этой деятельности, определяя свое место в обществе, будет обсуждаться, как осуществлялся процесс гендерного равенства.

Ключевые слова и понятия: Джадид, джадидизм, джадидские просветители, общество, эпоха, женщины, гендер, гендерная культура, феминизм, образование, народное образование, школа.

OCHILOVA G.A. THE CONTENT OF ATTITUDES OF JADID ENLIGHTENERS ON GENDER CULTURE

The article describes the pedagogical process that occurred in Turkestan at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the lifestyle of the women of that time, the activities of the intellectuals of Jadid and the fundamental changes in the life of the women of the country as a result of this activity, defining their place in the society. it will be discussed how the process of gender equality was implemented.

Key words and concepts: Jadid, Jadidism, Jadid enlighteners, society, era, women, gender, gender culture, feminism, education, public education, school.

Kirish. Turkiston o'lkasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida turli xildagi ma'naviy-g'oyaviy oqimlar faoliyat olib borar va ularning g'oyaviy yo'nalishi har qaysisi ma'lum bir ijtimoiy-pedagogik mazmunni aks ettirar edi. Bular sirasiga qadimchilar, bedilxonlar, mashrabxonlar kabi yetuk ma'rifiy ta'limotlarni targ'ib etuvchilar faoliyat yuritishgan bo'lib, shu bilan birga bu davrda o'lkada jadidlar faoliyati ham shakllana boshlagan edi. Jadidchilik harakati ma'rifatchilik hamda turli diniy-islohotchilik harakatlari asosida rivojlandi. Bu davrda jadidlarning pedagogik qarashlari negizida tobora qoloqlik, tarqoqlik, ilmsizlik botqog'iga cho'kib borayotgan xalq ommasiga ma'rifat orqali ta'sir ko'rsatishga harakat namoyon bo'la boshladi. Jadidlarning asosiy maqsad-dasturlaridan biri xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini yaxshilash, ular yordamiga tay-anib, jamiyatni rivojlantirish yo'lida xizmat qiluvchi komil avlodni yetishtirishga qaratildi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi globallashuv jarayoni butun dunyoda va aynan O'zbekistonda shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va komil insonni voyaga yetkazib, ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali rivojlanish yo'lidan borishni talab etadi. Jamiyatda gender tenglik masalasiga alohida ahamiyat berilayotgan hozirgi davrda, pedagoglar tayyorlash tizimida gender madaniyatning ilk ko'rinishlari bu hududda qachon va qay usulda kirib kelganligi, rivojlanish jarayoni haqida to'liq ma'lumot olish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida Turkiston hududida jadid ma'rifatparvarlarining gender madaniyatni rivojlantirishga oid pedagogik qarashlarini o'rganish va o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Xorijlik tadqiqotlari Marianna Kamp, Adeeb Khalid, Edward Allworth, Olivier Roy kabi xorijlik olimlar jadidchilik harakati va Turkiston o'lkasida xotin-qizlar masalalarini izchil tadqiq etdilar hamda o'z xulosalarini bayon etdilar.

Rossiya olimlari E.Frolova, T.Morozova, N.Chistyakova kabi olimlar ilmiy tadqiqotida gender siyosatining ta'lim tizimidagi o'rnini haqida fikr yuritadi.

O'zbekiston olimlari. Jadidchilik harakati va faoliyati B.N.Saidova, S.A.Abdivohidov, T.Q.Qozoqov, A.A.Isokboyev kabi olimlar tomonidan

o'rganildi. O'zbekistonda gender madaniyatga alohida e'tibor qilinayotgan bir davrda, bu yo'nalishda huquqiy, psixologik, pedagogik tadqiqotlar olib borgan olimlar X.M.Tojiboyeva, N.D.Sagindikova, G.A.Matkarimova, M.M.Tilavova, G.B.O'razaliyevlar ishlarida keng yoritildi.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, olimlarimizning tomonidan jadid ma'rifatparvarlarining gender madaniyatni rivojlantirishga oid pedagogika qarashlarining mazmuni va mohiyati tadqiq etilishi va yetarli darajada o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonida, bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirish dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotning ob'yekti. Jadid ma'rifatparvarlarining gender madaniyatni rivojlantirishga oid pedagogik qarashlarini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish jarayoni.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar: Tadqiqotda ilmiy-tarixiy umumiy tasavvur, tarixiy va badiiy adabiyotlar, arxiv materiallarini o'rganish, umumlashtirish, tizimga solish hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Jamiyatda ro'y berayotgan turli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning evrilishi fonida xalq ongini, dunyoqarashini jahon taraqqiyoti talablariga moslashtirish, diniy ta'limdan cheklanmagan holda dunyoviy bilimlarni ham o'zlashtirishga keng imkoniyat yaratish jadidlarning asl maqsadi bo'ldi. Darhaqiqat, bu davrda Turkiston qadimgi taraqqiyotidan ham ortda qolgan bir ahvolga kelib bo'lgan edi. Jadid ma'rifatparvarlari esa bu tanglik ahvolni tushunib yetgan holda umumiy maqsad sari intildilar. Shu sababdan milliy maktablar ochish, unda xotin-qizlar rolini oshirish, jamiyatni "uyg'otishga" xizmat qiluvchi avlodni tayyorlash jarayoni boshlandi.

"Jadidchilik"ning yuzaga kelishi va Turkistonda ildiz yoyishi bilan bog'liq masalalarni jadidshunos olim Begali Qosimov "Milliy uyg'onish" nomli ilmiy asarida quyidagicha ta'riflaydi: - "Jadidchilik"ning asosida jadid so'zi yotadi. "Jadid"ning ma'nosi "yangi" demakdir. U shunchaki "yangi" yo bo'lmasa, "yangilik tarafdori" degani emas. Balki, "yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan¹.

O'sha davr Turkiston xalqlarining ma'naviy hayotini o'rgangan logann Gaurining qayd etishicha:

¹ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: "Ma'naviyat". 2002.- 5 b.

- "xotin bilan ajrashishi juda ham oson kechar edi. Buning uchun eri faqatgina bitta so'zni (taloq) aytsa, bas. Xotinlar meros huquqidan ham mahrum edilar; ular hattoki o'zlari ham marhumning qarindoshlariga meros sifatida biror narsa kabi olinar edilar. Musulmon ayollarining o'zlari bu kamsitishlarni unchalik sezmaydilar, ular o'zlari uchun hech qanday yaxshilik kutmaydilar..."¹. Bu kabi chet el kuzatuvlari va tahlillari fonida, jadidlar jamiyat rivojlanishiga turtki bo'luvchi omil xotin-qizlar ta'limida ekanligini, jamiyatda ularning haq-huquqlarini tiklash masalasi dolzarb ekanligini tushunib yetdilar. Bu faoliyatni o'rganish va hozirgi globallashuv asrida yosh pedagog kadrlarda axborot iste'moliga nisbatan g'oyaviy immunitetni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkistonlik xotin-qizlar hayoti va jamiyatdagi o'zgarishlarning ular hayotidagi ta'sir darajasini o'rgangan olim, Vayoming universiteti professori Marianna Kampning bir qator ilmiy tadqiqotlari mazkur mavzuni yoritishga qaratilgan. Marianna Kamp XXasr o'zbek ayollari ozodligi mavzusiga bag'ishlangan ilmiy asarida² quyidagi tahliliy fikrlarni ifodalaydi: Ayollar huquqlari haqidagi munozaralar ikkita kontekstga ega edi: siyosiy va diniy. Qolaversa, ayollarning o'zlari ham o'z haq-huquqlarini izlab, o'zlarini erkaklar bilan teng fuqaro sifatida ko'rmaganlar, balki faqat islom normalari bo'yicha erkaklar tomonidan berilgan erkinliklarni kengaytirishga intilganlar.

Bu davrda balog'at yoshiga yetgan har bir xotin-qizlar qiyofani boshdan-oyoq yopib turuvchi an'anaviy ustki kiyim va chachvonni kiyishgan. O'zbek ayolining xarakterida xokisorlik, kamtarlik kabi sifatlar aks etgan. Albatta, muallifning qayd etishicha, o'zbek jamiyatining shakllanishiga jadidlarning ta'siri katta bo'lgan, biroq o'zbek ayollari burqa kiyish yoki kiyimaslik haqida o'zlari qaror qabul qilib, jamiyatning madaniy va iqtisodiy asoslarini shakllantirganlar.

Yuridik fanlari doktori G.A.Matkarimova "Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari" nomli dissertatsiya ishida shunday g'oyani ilgari suradi: "Zo'rlikning o'sishi, jamiyatning ma'naviy qashshoqligi kasalligidan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, jamiyatdagi barcha jaray-

onlar bir – biri bilan bog'liq. Gender tengligiga erishish uchun u yoki bu muammonigina hal etish bilan erishib bo'lmaydi. Gender tengligi bu avvalo, ongning o'zgarishidir. Chunki har qanaqa tengsizlik kishilar ongida, mentalitetida yuz beradi"³.

1900 – 1925 yillar "jadidchilik"ning paydo bo'lishi va o'z davrining eng peshqadam hodisasi sifatida baholanganligi davrning asosiy voqealaridan biri bo'ldi.

Turkiston hududida ta'lim-tarbiya jarayonlari haqida D.Djurayevning ilmiy tadqiqotlarida xulosa qilinishicha XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xalq ta'limi muayyan tizimga ega bo'lmagan ekanligi, an'anaviy maktablarning moddiy ta'minoti, o'qitish sifati yolg'iz maktabdor zimmasiga yuklatib kelingani sababli uning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv jarayoni va beriladigan ta'lim sifati o'ta past darajada bo'lganligi haqida ma'lumot beriladi⁴.

Turkiston hududida yangi usul maktablari ochilguniga qadar o'quvchilar yilning har qanday faslida va davrida maktabga qabul qilinganlar. Ota-onalar 5 – 6 yoshdan farzandlarini maktabga berishgan. O'quvchilarning ta'lim olish davomiyligi esa ota-onalarning iqtisodiy imkoniyatiga va boshqa bir qancha omillarga qarab belgilangan. Shu sababli aksariyat o'quvchilar maktabni 14 yoshga qadar o'qishgan. Iqtidorli o'quvchilar esa maktabni erta-roq tugatishgan⁵. Qiz bolalarga ta'lim otinoyilar tomonidan tashkil etilgan.

Ismoilbek Gasperinskiy 1881-yili "Tavrida" gazetasidagi maqolasida yangi usul maktablari dasturini quyidagicha ifoda etadi: milliy maorif tizimini isloh etish; milliy maorif tizimini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun "Jamiyati xayriya"lar tashkil etish; turkiy xalqlarning umumiy, milliy matbuotini tashkil etish; musulmon xotin – qizlarini ozod etish; milliy mutaxassis va ziyolilarni yetishtirish uchun sharoit yaratish.

Bu esa o'z vaqtida siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy dastur hisoblangan⁶. Ismoilbek Gasperinskiy dasturi asosida Turkiston o'lkasida

³ Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari. Yuridik fan.dok. diss...2002. – 98 b.

⁴ Djurayev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari(XIX asr ikkinchi yarmi – XXasr boshlari). Ped.fan.diss...Toshkent. 2019. – 66 b.

⁵ Djurayev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari(XIX asr ikkinchi yarmi – XXasr boshlari). Ped.fan.diss...Toshkent. 2019. – 42 b.

⁶ Sharipov R. Turkistonda jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 30 b.

¹ Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz.diss... – T.: 2003. – 90 b.

² Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. Seattle, WA; London: University of Washington Press, 2006. 320 pp.

ochilgan usuli jadid maktablari orqali xotin-qizlar ta'limiga ham keng imkoniyatlar berildi. Aynan shu davr gender pedagogikasining rivojlanish bosqichi bo'ldi. Jadid maktablarda xotin-qizlar o'g'il bolalar bilan birgalikda dars mashg'ulotlariga jalb etildi. Qizlar ta'lim olish uchun dars jarayonlarida, nazorat imtihonlarga qatnashishda o'g'il bolalar bilan bir safda ishtirok etdilar.

Jadidlar oilada va jamiyatda xotin-qizlar ta'limi muhim ekanligini, o'qimishli ayol jamiyat rivojlanishining asosi bo'lishi g'oyasini singdirdilar. "Xotinlarni o'qitmoq va ularning oqillarini jilo bermak va erlari birla yaxshi muomalalar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoqni yaxshi bilmaklari xususida ta'lim albatta zarurdir" deb ta'kidlaydi Abdurauf Fitrat¹. Qizlar ta'limiga e'tibor tobora ortib bordi.

Bu masalada Munavvarqori o'z munosabatini bildirib, "men ko'p vaqtdan beri ayollarni ancha tezroq ozod qilish, maktablarda erkaklar bilan tenglik asosida o'qitish va ishga jalb etish, ularning huquqlarini erkaklarga tenglashtirish tarafdoriman", deb o'zining shaxsiy fikrini bildirdi².

Pedagog olim Abdulla Avloniyning zamonasi ayollari haqidagi fikrlarini shunday ifodalaydi: - "Oh, zolim madaniyat, bizim turkistonliklarning orasiga kelub qachon tomir yoyasan? Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilasan?! Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotin – qizlarimiz ilmu maorif ila nurlanmaguncha... Mana bu xotun bechorani erga bergan vaqtlarida o'z xohishi bilan, o'zining rizoligi bilan, o'zi ko'rib, xohlaganga bermasdan, hayvon kabi kuchlab, qo'lidan tutib, bir zolimning qo'lga berganlar. Bu mushtipar ma'sumaning butun umri azob, mehnatda – qayg'u va kulfatda o'tub, dunyoga kelganiga – da ming marotaba pushmon yeb, g'am zindonida yashag'on. Mana bizning oramizdagi shunday ko'ngilsiz hollarni yo'q qilmoq uchun butun kuch – quvvatimizni xotun – qizlarimizni o'qutmoq, maorif va madaniyat ila oshno qilmoq yo'linda sarf qilmog'imiz lozimdir"³ deya ma'rifat orqali bu illatlarni yo'qotish mumkinligiga ishonadi.

Rajabova o'z tadqiqotlarida jadid ma'rifatparvarlari davr xotin – qizlarining haq – huquqlarini qaytarish ilinjida ilm-ma'rifat yo'lini tanlaganliklarini asoslab berdi. Xotin – qizlarning

haq – huquqlari paymol qilinishi, zindonda saqlangandek jamiyatdan uzib qo'yilishi, barchasi - shu jamiyatning ilmsizligidan, qoloqligidan ekanligi masalasini ilgari suriladi.

Jadidlar o'z qarashlarida jamiyat rivojlanishini to'xtatayotgan xotin – qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog'liq illatlar: ma'rifat qoloqligi, qayg'u – kulfat, urug'chilik va o'rta asrdan saqlanib qolgan munosabatlardan qutulish yo'l – yo'riqlari oz aksini topgan. Jadidlar fikricha, xotin – qizlar o'z ayollik huquqlarini anglashi, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur⁴.

Jumladan, Abdurauf Fitratning "Oila" asarida o'sha davrda ijtimoiy jamiyatdagi holatni nadomat bilan bayon etadi: - "Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan – qancha tahqir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o'z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o'ylaymiz va u bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz. Ko'p holatda, hayvonlarning holiga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon hollariga muruvvatimiz yetmaydi. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so'kish faxr va g'urur sanaladi, urib mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz". Fitratning xotinlarni haqorat qilish, ularga zulm ko'rsatish, go'yoki, erkakchilikning bir ko'rinishi deya ta'rif berishidan ma'lum bo'ladiki, bu davrda jamiyat a'zolari orasida xotinlarga bo'lgan munosabatning qanday ko'rinishda ekanligini ko'zgu kabi ko'ra olish mumkin. "Saodat mayli va taraqqiy orzusi ularning qalbidan tamoman chiqqan. Shijoat va jasorat batamom yo'q bo'lib, tabiatlaridan tanballik va zaiflik joy olgan. Izzat talabi, sharaf va huquqlarini himoya etishlari zarurligini tushuntirib berganda ham fahmlamaydilar. Ya'ni hurmatsizlik va izzatsizlikni o'zlarining xislatlaridan deb biladilar."⁵ deya Fitrat jamiyatda xotinlarning o'z huquqlarini bilmasliklari ular uchun tabiiy holdek qabul qilinishini nazarda tutadi. Jamiyatda xotin-qizlarning haq-huquqlarini poymol qilinishi ularning xarakter-xususiyatiga singib ketganligi bilan izohlaydi. Fitrat jamiyatdagi qoloqlikni, ilmsizlikni oiladagi ayollarning aql-idrok-

¹ Фитрат А. Танланган асарлар: 2 т. - Т.: Маънавият. 2000. – 110 б.

² Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz.diss... - T.: 2003. – 118 b.

³ Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz.diss... - T.: 2003. – 90 b.

⁴ Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz.diss... - T.: 2003. – 108 b.

⁵ Фитрат А. Танланган асарлар: 2 т. - Т.: Маънавият. 2000.

ining darajasiga, tafakkur ko'lamiga qarab belgilashni nazarda tutadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida gender madaniyatning ilk ko'rinishlari jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida, pedagogik faoliyatlari davomida yuzaga chiqqan boshladi va bu jarayonda ular o'z maqsadlari yo'lidan qaytmadilar. Bu shunday bir vaziyat ediki, unda feministik g'oya suv bilan havodek zarur edi. Feminizm g'oyasi – bu ayollarning huquq va imkoniyatlarini erkaklar bilan tenglashtirishni maqsad qilgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy harakatdir. Feministlar ayollarning egallagan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mavqeyini tiklash, ayollar huquqlarini himoya qilishga intiladilar. Feminizmning asosiy maqsadi shundaki, ayollar va erkaklar orasidagi tenglikni ta'minlash, balki keng ma'noda gender-asosli diskriminatsiyani kamaytirish va ayollarni hayotning barcha sohalarida teng huquqlarga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Jadidchilikning umummilliy darajaga ko'targan yana bir muhim omil uning emansipativ-feministik asosidir. Yangi insonni, yangi Turkistonlikni voyaga yetkazish uchun faqat ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanish kifoya qilmasdi. Zero, usuli jadid maktablari tarbiyasi, yangicha axloq va fikrlashga yo'naltirilgan da'vatlar, matbuot shaklidagi yangicha hayot tarzi yosh avlod ruhida, uning qon-qoniga singib ketishi uchun oilaviy tarbiyani, onalarni va bo'lajak onalar – qizlarni yordamga chaqirish kerak edi. G'oya har bir yo'nalishning asosiy quroli, maqsadga erishish vositasi hisoblanadi.

Bu davrda vaqtli matbuot sahifalarida ayol yozuvchilarning ishtiroki ham sezilarli darajada ortib bordi. Ular butun millat xotin-qizlarini qorong'ulikdan chiqib, jamiytdagi vazifalari, haquhuqlarini to'g'ri anglab olishga chaqira boshladilar. Buning yagona yo'li, albatta, ilm-ma'rifatda ekanligini uqtirdilar. Sora Muzaffariyaning "Ayb o'zimizda" nomli maqolasida yozishicha, "Bizda iste'dod ham bor, qobiliyat ham bor. Bir uy ichigina emas, ba'zi erlar ham o'rniga keltira olmaydigan mamlakatlar idora qilaturg'on quvvat ham bor". Bu bilan Sharq ayolining Ovro'pa ayollaridek erkaklar bilan teng huquqli hayot kechirishi haqida mushohada yuritir ekan, muallif o'zbek xotin-qizlarni birlashtirishga, eskicha hayot tarzini isloh qilishga chaqiradi: "Ey turk xotini! Xalqimiz bizga salomat aql va fikriy bo'lgan iste'dod va qobiliyat berganku! Oni dunyoga chiqarishdan man' qilmoqqa kimning haqqi bor?". Bu hayqiriqlar xotin-qizlarimizni faqat

ilm olish bilan cheklemasdan, Turkiston jamiyatining madaniy, ma'rifiy va siyosiy jabhalarida faol ishtirok etishlariga undagan¹. Sora Muzaffariya jamiyatda ayollarning tutgan o'rnini tahlil qilar ekan, har bir ho'rliklarning asl sababchisi ayollarning o'zlari ekanliklarini ta'kidlaydi.

Jadid ayollari orasida o'sha davrdagi taraqqiyparvar ziyolilardan Mulla Said Ahmadning qizi shoir, yozuvchi va pedagog Nozimaxonim alohida o'rin tutadi. U otasining sa'y-harakati bilan o'zbek qizlari uchun ochilgan maktabda ta'lim olgan.

Nozimaxonim badiiy ijoddagina emas, shaxsiy hayotida ham ilm – ma'rifat, tenglik va ozodlik jar-chisi bo'lgan. U har bir munosabat va mavridan foydalanib, o'z atrofida to'plangan ayollarga ilm – urfon, tenglik va ozodlik g'oyalarini targ'ib etgan.

Darhaqiqat, Nozimaxonim o'z davrining madaniyatli, ilg'or qarashli ayoli edi... Uning 1904 – yilda "Turkiston viloyatining gazetasi"da bosilib chiqqan "Insonga qancha erk darkor", "Xotinlar huquqiga oid", "Ilm va ma'rifat borasida bir – ikki so'z" kabi maqolalari chop etildi.

Toshkentda nashr qilingan "Al-isloh" jurnalining 1915-yilgi sonlaridan birida xotin-qizlarni pardada saqlash haqida din peshvolaridan biri tomonidan she'r bosilib chiqdi². Unda ayollar sha'niga beparda so'zlar aytilib, ularni ma'rifatdan uzoq saqlash mazmunidagi jumlar bor edi. Xotin qizlar ozodligi haqida gapirishni xush ko'radigan matbuot ham bu jarayonda sukut saqladi. Unga munosib javob qaytarishga hech kimda jur'at yetmay turgan bir davrda Nozimaxonim tomonidan shiddatli javob yangradi:

Yetar, baskim, biza behad balo sangi nasib o'ldi,
"Zaifu notavon"lar deb, biza qullik nasib o'ldi.
Ki ul zulmatni timsoli chodir-chimmat nasib o'ldi,
Asrlar eltgon ul bid'at uyqusidan uyg'oning!...
Yetar bo'hton, haqorat biz "zaifu notavon"larga,
Javobi loyiqi bersak, aningdek bedavolarga.
Ilmdin bas, qanot aylab, qilib parvoz havolarga,
Asrlar eltgon ul g'aflat uyqusidin uyg'oning!

Shunday bir tahlikali zamonda ayollar huquqlarini himoya qilib chiqqan pedagog va jurnalist Nozimaxonim o'z davrining mashhur yozuvchisi, shoirasi sifatida ham samarali ijod bilan shug'ullangan. Xotin-qizlar ozodligi yo'lida vaqtli

¹ Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz.diss... – T.: 2003. – 121 b.

² Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: "Ma'naviyat". 2002. – 211 b.

matbuot sahifalarida bir qancha she'r va maqolalar bilan chiqdi. Maqolalarning mazmuni, avvalo, jamiyatdagi bid'at amallar, illatlarni fosh etish, ayollarga ilm-ma'rifat yo'lini tanlash, huquqlarini, jamiyat hayotidagi rolini oshirish masalalarida turli tavsiyalar berib borildi. Nozimaxonimning shogirdi Manzurabonu o'z xotiralarida ustozini rus tilida erkin so'zlasha olishini, Orenburg va Qozonda chiqib turgan matbuotni muntazam kuzatib, o'z o'quvchilariga Rusiya ayollari hayotidan qiziqarli hikoyalar so'zlab berganini yozadi. Darhaqiqat, Nozimaxonim o'z davrining madaniyatli, ilg'or qarashli ayoli edi. U Ovro'po adabiyoti va madaniyati bilan tanish, xususan, Ovro'po erkparvarlik g'oyalaridan bahramand xotin-qizlarimizdan edi¹. U ayollarning ta'lim olishida muhim rol o'ynagan va ko'plab tadbirlarda faol ishtirok etgan.

Aniq xulosa va amaliy takliflar

Asrlar mobaynida haq-huquqlari toptalgan, o'zini faqat uy xizmatkori, er va qaynonaning cho'risi sifatidagi namoyon bo'lgan, ijtimoiy hayotdan chetlatilgan, to'rt devor ichida erksizlikdan azob chekkan Turkistonlik xotin-qizlari tom ma'nodagi

uyg'onishni, ham milliy-ma'naviy, ham ijtimoiy-siyosiy uyg'onish yo'lini qat'iy ravishda tanlab oldilar. Bu vaqtga kelib xotin-qizlar jamiyatning turli sohalarda faoliyat yurita boshladilar. Jumladan, maorif, tibbiyot va matbuotdagi faolliklari ko'zga tashlana boshladi. Jamiyatda gender madaniyatning ilk qadamlari tashlandi.

Xulosalarga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, jadidchilik harakatini o'rganish jarayonida gender madaniyatning ilk ko'rinishlari bu hududda aynan ular bilan bog'liq holda shakllanganligini, jadidlarning sa'y-harakatlari bilan jamiyatda ayollarning haq-huquqlari himoyaga olinish davri boshlanganligini, oilada va jamiyatda ularning roli oshib borganligini, har bir sohada erkaklar bilan teng imkoniyatlarga erisha boshlaganliklarini ko'rish mumkin bo'ladi. Gender stereotiplari bir muncha yengillashgani, xotin-qizlarning ta'limda, maorifda hamda tibbiyotda o'z yo'nalishlarini belgilab olganliklarini guvohi bo'lamiz. Tadqiqotda jadid ma'rifatparvarlarining gender madaniyatni rivojlantirishga oid pedagogik qarashlarini ochib berish uchun ilmiy-pedagogik izlanishlar umumlashtirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - Toshkent, "Ma'naviyat". 2002-y.
2. Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. Seattle, WA; London: University of Washington Press, 2006. 320 pp.
3. Фитрат А. Танланган асарлар: 2 т. - Т.: Маънавият. 2000.
4. Matkarimova G.A. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari. Yuridik fan. dok. diss... - T.: 2002.
5. D.Rajabova. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: Tarix fan. Noz. diss... - T.: 2003.
6. Djurayev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari(XIX asr ikkinchi yarmi – XXasr boshlari). Ped. fan. diss... - Toshkent: 2019.
7. Sharipov R. Turkistonda jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
8. Ochilova G. JADIDS' PEDAGOGICAL CONSIDERATIONS TO THE DEVELOPMENT OF GENDER CULTURE. // Science and innovation 2.B12 (2023): 868-871.
9. Ochilova G. PEDAGOGICAL VIEWS OF THE JADID ENLIGHTENMENT ON THE DEVELOPMENT OF GENDER CULTURE. (2023).
10. Ochilova G. DIDACTIC HERITAGE IN THE CREATION OF ABDULLA AVLONI. // Академические исследования в современной науке, 1.14 (2022): 121-123.
11. Khaydarov Sh., Ochilova G. and Khujaniyozov B. A CREATIVE APPROACH TO LEARNING BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES. // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 3.13 (2024): 5-11.

¹ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: "Ma'naviyat". 2002.- 211 b.